



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2025-yil, 12-13-noyabr

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE
PHILOLOGY AND TRANSLATION
STUDIES”**
international scientific and practical conference
November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV

akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic
“Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboyev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

MUSLIMBEK YO‘LDOSHEVNING TARJIMONLIK MAHORATI (I. Kalashnikovning “Shafqatsiz asr” romani tarjimasida)

Xayrulla Hamidov,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, f.f.d.

10.52773/tsuull.conf.2025.12.11/PKEQ8764

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muslimbek Yo‘ldoshevning rus yozuvchisi I. Kalashnikovning “Shafqatsiz asr” romani tarjimasida misolidagi tarjimonlik mahorati tahlil etilgan. Asarning badiiy xususiyatlari, tarjima jarayonida milliy va madaniy koloritni saqlash, muallif uslubini o‘zbek tilida ifoda etish usullari o‘rganilgan. Shuningdek, tarjimonning leksik va stilistik tanlovlari orqali asarning ma’no va ruhiyatini to‘liq yetkazishdagi mahorat darajasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *tarjima, tarjimonlik mahorati, badiiy tarjima, milliy kolorit, uslub, I. Kalashnikov, “Shafqatsiz asr”, Muslimbek Yo‘ldoshev.*

Abstract. This article analyzes Muslimbek Yuldoshev’s translation skills using the example of the Uzbek translation of the Russian writer I. Kalashnikov’s novel “The Merciless Century.” The study examines the artistic features of the work, the preservation of national and cultural color in the translation process, and the methods of conveying the author’s style in the Uzbek language. It also reveals the translator’s level of mastery in fully transmitting the meaning and spirit of the novel through lexical and stylistic choices.

Keywords: *translation, translation mastery, literary translation, national color, style, I. Kalashnikov, The Merciless Century, Muslimbek Yuldoshev.*

“O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, oliy toifali suxandon Muslimbek Yo‘ldoshevni o‘zbek xalqi taniqli teleboshlovchi sifatida yaxshi biladi. Ko‘pchilik iste’dodli shoir, taniqli jurnalist sifatida ham yaxshi taniydi. Biroq bu insonning yana bir qirrasini – mohir tarjimon ekanligi ko‘pchilikka ma’lum emas. Ko‘pchilik ijodkorning badiiy tarjimalarini o‘qir ekanmiz, uning qalami o‘tkir tarjimon ekaniga ham amin bo‘lamiz” [1, 135].

So‘z zargari, ustoz-muallim M. Yo‘ldoshevning yozishicha, ilk bor 20–21 yoshlarida tarjima qilishni boshlagan. Bu M. L. Kingning “Menda bir orzu bor” asaridan bo‘limlar bo‘lgan. Harbiy xizmat davrida ukrain yozuvchisi G. Karenkoning “Salsabil” nomli hikoyasini ona tilimizga tarjima qilgan. Keyinchalik A. S. Pushkin, M. Bajan, R. Hamzatov, A. Dementyevning she’rlarini o‘zbek tiliga o‘g‘irgan. 2007–2010-yillarda V. Shteynbaxning “Последний раунд. Бокс, деньги и голуби” nomli kitobi va I. K. Kalashnikovning “Жестокий век” nomli tarixiy romanini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. 1-qissa “Boks plus futbol” gazetasida, tarixiy roman esa ilk bor “Jahon adabiyoti” jurnali sonlarida nashr etilgan.

Taniqli adabiyotshunos olim, adib Mahkam Mahmudov “Muslimbek Yo‘ldoshev Isay Kalashnikovning “Shafqatsiz asr” roman-epopeyasini o‘zbek tiliga tarjima qilishini ijodiy jasorat deb bilamiz... U vatanimiz tarixining qahramonona kurashlarga boy nodir sahifalari aks etgan bu yirik va murakkab asarni ilhom bilan tarjima qilgan” [1, 135], – deya yozgan edi. Darhaqiqat, ushbu maqolada so‘z ustasi M. Yo‘ldoshevning faqat tarjimonlik mahoratiga e’tibor qaratilib, uning badiiy tarjimada so‘z tanlash mahorati u ona tilimizga qoyilmaqom qilib o‘g‘irgan o‘sha ikki jildli “Shafqatsiz asr” tarixiy romani va uning tarjimasida yoritishga harakat qilinadi.

So‘nggi yillarda o‘zbek tarjima adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan mutarjim 2010-yil rus tilidan buriyatilik (Rossiya) taniqli yozuvchi Isay Kalashnikov qalamiga mansub “Shafqatsiz asr” (“Жестокий век”) tarixiy romanini ona tilimizga yuksak badiiy mahorat bilan tarjima qildi. Yuzaga kelgan ayrim shart-sharoitlar tufayli tarjimoni hech qacda bosishning iloji bo‘lmadi. Biroq, oradan 5–6 yil vaqt o‘tib, 2016–2017-yillarda “Jahon adabiyoti” jurnalida romandan ayrim fasllar tanlab olinib nashr qilindi. Shundan keyin, romanning 1-jildi 2018-yilda “O‘zbek milliy

ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyotida o‘n ming nusxada chop etildi (yana ayrim sabablar tufayli asar tarjimasining 2-jildi nashr etilmay qoldi). Bundan uch yil vaqt o‘tib, 2021-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida asarning to‘liq tarjima matni ikki jildda chop etildi va bugungi kunda asar o‘zbek kitobxonlari sevib o‘qiyotgan kitoblardan biriga aylangan, deyish mumkin.

Dunyoni titratgan jahongirlar ichida o‘ta murakkab tarixiy shaxs sanalgan Chingizxonning nomi asrlardan buyon kishilar orasida tildan tilga ko‘chib, u haqda turli hikoya va rivoyatlar, afsonalarda so‘ylanib keladi. Vatanimiz tarixining qahramonliklarga boy davri bilan ham tanishish imkonini beruvchi mazkur romanni ona tilimizga o‘girish ustida tarjimon mislsiz mehnat qilgan va natijada asarning qoyilmaqom tarjimasini yuzaga chiqqanini e’tirof etish lozim.

Roman mo‘g‘ul qabilalari boshliqlaridan biri – jangchi Yesugayning (Temuchinning otasi) O‘ylunni (Temuchinning onasi) olib qochishi voqeasidan boshlanadi. Ko‘p o‘tmay, Yesugey va O‘ylun oilasida Temuchin dunyoga keladi. Biroq, bolaning hayoti oson kechmaydi. Temuchin 10 yoshga to‘lganida tatarlar uning otasini zaharlashadi. Ko‘p o‘tmay otasining uzoq qarindoshlari oila mulkini talon-taroj qiladi va Temuchin o‘sha zamon zo‘rlaridan bo‘lgan qarindoshi Torg‘utoy-Qirilduqning zulmiga giriftor bo‘ladi. O‘z hayoti tongida achchiq qullik qismatini boshdan kechirgan Temuchin bunday taqdirni o‘z qabiladoshlariga ravo ko‘rmaydi.

Har qanday badiiy asarning sarlavhasida uning mazmuni yashirin bo‘ladi. Muallif asarning egasi, u o‘z farzandiga qanday nom tanlashni bilgani kabi, asarini ham qanday nomlashni biladi. Bu uning huquqi... Badiiy asar sarlavhasida badiiy obraz yashirib yotadi. Tarjimonda ham bunday imkoniyat bor, faqat uning huquqi biroz cheklangan. Tadqiq etilayotgan asarga kelinsa, ruscha tarjimada “Жестокий век” deb nomlangan asarni M. Yo‘ldoshev aynan “Shafqatsiz asr” deb o‘g‘irgan. Darhaqiqat, asarning umumiy mazmuni, kontekstdan kelib chiqilsa ham, sarlavha tarjimasini asliyat matni va mazmuniga to‘la mos keladi.

Asar tarjimasiga oid ba’zi tahliliy fikrlarga o‘tishdan oldin ta’kidlash kerak, romanning ruscha nashri 718 bet (12 shrift), har sahifada o‘rtacha 400–410 ta so‘z bo‘lib, bu odatdagi kitoblardan qariyb 1,5 marta ko‘proq (o‘zbekcha matnda 281400 atrofida so‘z ishlatilgani aniqlangan). Bu raqamlardan kelib chiqilsa, u odatiy o‘lchovlarda 1100–1150 betdan iborat ulkan kitob ekanligiga amin bo‘lish mumkin. Shuningdek, asarda 243 dan ortiq personaj ishtirok etganligini alohida e’tiborni tortadi (Bu ismlari keltirilganlari! “Bobosi”, “Qorovul”, “Keshiktan” singari nomlar bilan kiritilgan yana behisob ishtirokchilar bundan mustasno. Romanda taxminan sakson-yuz yillik tarixiy davr qamrab olingan). Bundan tashqari, yozuvchi ushbu tarixiy roman Osiyoning o‘ttizdan ko‘proq daryo va ko‘l nomlari, ellikdan ziyod toponimlar, shahar va qal’alar, istehkom va poytaxtlar nomlarini tarixiy kitoblarda yozilganidek keltiradi. Behisob o‘simlik va g‘iyohlar, daraxt-u butalar haqida ma’lumot olish mumkin ushbu asarda. Ana shular hisobga olinganda, ushbu badiiy asarni, ta’bir joiz bo‘lsa, yirik ensiklopediyaga mengzash mumkin. M. Yo‘ldoshev ana shunday epopeya – qomusiy asarni o‘zbek kitobxonlariga armug‘on etgan.

Asarda muallif yuzlab frazeologik birliklar qo‘llagan va ularning to‘g‘ri, o‘z o‘rnida va ishonchli o‘girilishi tarjimaga betakror ifodaviylik, ixchamlik va aniqlik baxsh etadi, ifodaning ta’sirchanligi, badiiyligini oshirgan. Mana bir misol: *“Она вспоминала прощальный пир, про себя напевала сложенные в ее честь песни, украдкой поглядывала на своего жениха. Он был ей по душе, ее Чиледу. Высокий, крепкий, лицо открытое, приветливое; такой, она знала, зря не обидит и в обиду не даст. Этот день был для Оэлуна как бы продолжением праздника. Но вечером, когда они остановились на ночлег и Чиледу велел ей приготовить ужин, она как-то сразу, в одно мгновение, осознала крутую перемену в своей жизни, поняла, что покинула родной нутуг – кочевье – не на день, не на два навсегда. Ей стало так тоскливо, что, забыв про ужин, она села на землю, закрыла лицо руками и горько заплакала. Чиледу удивленно*

заморгал глазами, наклонился над нею, провел ладонью по голове, ничего не сказал. Она не дала воли слезам, вытерла глаза полой халата, стала разводиться огонь. Но тоска из сердца не уходила. Кончилась ее беззаботная жизнь. Теперь она должна готовить пищу, шить одежду, седлать мужу коня, править повозкой во время перекочевок...” [2, 3]. Parchaning tarjimasini: “U xayrlashuv bazmini eslab, o‘zicha uning sharafiga to‘qilgan ashulalarni xirgoyi qilib, ora-chora kuyovga o‘g‘rincha ko‘z qirini tashlab borardi. Uning eri, Chiledu, o‘ziga yoqib tushgan edi. Baland bo‘yli, chayir, ochiq yuzli va istarasi issiq bu yigit, bekorga xafa qiladiganlardan emasligi va o‘zgalarga ham xafa qildirib qo‘ymaydiganlardan ekanligini O‘ylunning ko‘ngli sezib turardi. Bugungi kun ham O‘ylun uchun bayramning davomidek edi. Ammo kechqurun ular tunash uchun bir yerda to‘xtaganlarida va Chiledu unga yegulik tayyorlashni buyurganda, u birdaniga, tuyqusdan hayotida keskin burilish yuz berganini, qadrdon ovulini bir kun-ikki kungina emas, balki umrbod tark etganini tushunib qoldi. U kutilmaganda ichi-ichidan sog‘inch hissiga o‘xshash bir og‘riq sezib, yegulik tayyorlash ham esidan chiqdi-yu, yerga o‘tirib olib, yuzlarini qo‘llari bilan berkitib achchiq yig‘lab yubordi. Chiledu hayron ko‘zlarini bir-ikki yumib ochdi-da, uning tepasiga kelib engashdi. Kafti bilan uning boshini silab qo‘ydi-yu, hech narsa demadi. Kelinchak ko‘z yoshlariga ortiq erk bermay, xalati etagi bilan yuzlarini artirdi-da, gulxan yoqa boshladi. Lekin yuragidagi dard nari ketmadi. Uning bearmon hayoti endi ortda qoldi. Endi u ovqat tayyorlashi, kiyim tikishi, erining otini egarlab berishi, boshqa joylarga ko‘chishadigan paytlarda esa aravani boshqarishi kerak...” [3, 3].

Ruscha matndan olingan parchada qo‘llanilgan “был по душе” iborasi “yoqib tushgan edi” shaklida, “в обиду не даст” – “o‘zgalarga ham xafa qildirib qo‘ymaydiganlardan” erkin birikmasi orqali, “не дала воли слезам” – “ko‘z yoshlariga ortiq erk bermay” frazeologik birligi orqali, “тоска из сердца не уходила” – “yuragidagi dard nari ketmadi” frazeologizmi vositasida o‘g‘irilgan.

Chileduning qisqagina portret tavsifi ham qisqa parchaga singdirib yuborilgan (“Высокий, крепкий, лицо открытое, приветливое – Baland bo‘yli, chayir, ochiq yuzli va istarasi issiq”).

Tarjimonning ibora qo‘llashda ba’zida muallifdan ham o‘tganini asliyatdagi sodda erkin birikmalarni frazeologik birliklar vositasida berganligida ko‘rish mumkin: *про себя напевала – xirgoyi qilib; украдкой поглядывала – ora-chora o‘g‘rincha ko‘z qirini tashlab; поняла – ko‘ngli sezib turardi; осознала крутую перемену – hayotida keskin burilish yuz bergani tushunib qoldi va h.k.*

Tarjimon asar personajining tashqi qiyofasi, egnidagi libosi, unga tegishli bo‘lgan ashyolar tafsilotini o‘z ichiga olgan ko‘rinishli portretini adekvat qayta yaratishi va qahramonning tashqi ko‘rinishi vositasida ichki dunyosiga kirib borishi lozim. Bu yerda personajga beriladigan ma’naviy-axloqiy ta’rif muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, yozuvchi mahoratini belgilovchi omillardan biri asar qahramonlari portretini yaratish bo‘lsa, tarjimon mahorati portret tavsifining tarjimada to‘laqonli berilishi bilan o‘lchanadi. Portret – badiiy asarda inson obrazini yaratishning muhim vositasi hisoblansa, uning badiiy tarjimada qayta yaratilishi, badiiy saviyasi tarjimon mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

Isay Kalashnikov roman personajlarining mansabu maqomi, egallab turgan lavozimini ta’riflar ekan, ularning tashqi ko‘rinishi, libosiga alohida urg‘u beradi. Bunda obrazlarga xos hech qanday detalni e’tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qiladi va natijada kitobxon ko‘z o‘ngida tipik personajlar gavdalanadi. Yozuvchining so‘z tanlash mahorati uning portret yaratish san’atida ham namoyon bo‘ladi. “Portret yozuvchining shaxsiy uslubi, mahorati va maqsadiga bog‘liq holda turlicha darajada berilishi mumkin. Masalan, ba’zan shaxsning tashqi qiyofasi va xatti-harakati juda batafsil tasvirlansa, ba’zan obrazning yo tashqi qiyofasiga, yo uning xatti-harakatiga oid muhim bir detalni tasvirlash orqali berilishi mumkin”. Demak, bunday san’atni o‘zga tilda qayta yaratish tarjimon zimmasida turadigan mas’uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi.

Badiiy asarda nomi kechadigan har bir personajga qisqa bo‘lsa-da portret tavsifi berilishi har qanday badiiy asarga xos xususiyatlardan biridir. Personajlarning fe‘l-atvori, dunyoqarashi, muayyan vaziyatdagi holati, yuz-ko‘zi, chehrasidagi o‘zgarishlar orqali ularning kayfiyati, ruhiyati ochib beriladi, hatto qaysi ijtimoiy sinf, tabaqaga mansubligi, jamiyatdagi maqomini ko‘rsatadi.

Romanning asosiy personajlaridan Temuchin va unga yaqin obrazlar adib ijodidagi eng yorqin, eng jozibador qahramonlar hisoblangani kabi ikkinchi darajali personajlar ham diqqatdan chetda qolmaydi. Romanning ilk sahifalarida Chiledu va O‘ylun maysazorda dam olish uchun to‘xtaganida kelgan “oyoqlari oppoq, malla ot mingan chavandoz” kitobxon e‘tiborini tortadi: *“На нем был халат из грубой шерстяной ткани, но оружие – кривая сабля, колчан со стрелами – украшено серебром, а седло и уздечка – медными резными пластинками. Оэун удивило, что обнаженная голова всадника была под цвет масти его лошади – рыжей. Небольшие косички, заложенные за уши, поблескивали так, будто были отлиты из меди. Она еще никогда не видела людей с рыжими волосами. И глаза у него не такие, как у всех, – не карие или черные, а серо-зеленые. Может быть, это и не человек. Тогда кто же? Дух добра или зла?”* [1, 5]. Parchaning o‘zbekcha tarjimasini: *“Uning egnidagi xalati dag‘al yung matodan tikilgan bo‘lsa ham, yarog‘lari – egri shamshiri, sadoqlari kumush bilan bezalgan, egari va yuganlari esa o‘yuma mis parchalari bilan yasatilgan edi. Otliqning yalang boshidagi sochlari xuddi minib olgan otinikiga o‘xshash malla ekanidan O‘ylun hayron bo‘ldi. Quloqlari ortiga tortilgan kokillari go‘yoki misdan quyilganday yaltirardi. U shu choqqacha mallasoch odamlarni ko‘rmagan edi. Ko‘zlari ham boshqalarnikiga o‘xshab qora yoki jigarrang emas – ko‘kimtir-kulrang edi. Balkim, u utuman odam ham emasdir? Unda kim bo‘lsaykin? Yaxshilik ruhimi yoki yomonlik”* [3, 9]. Ushbu parchadagi portret tasvirini tarjimon qoyilmaqom qilib ona tilimizga o‘giradi. Tarjimon adib kabi so‘zlarning uslubiy sinonimlar qatoridan eng muqobil bo‘lganlarini chertib-chertib tanlaydi: *шерстяная ткань – dag‘al yung mato; оружие – yarog‘; кривая сабля – egri shamshir; колчан – sadoq; медные резные пластинки – o‘yuma mis parchalari* va h.k. Tarjimon “халат из грубой шерстяной ткани” birikmasini “xalati dag‘al yung matodan” deb juda bejirim qilib o‘giran va bunda ruscha “халат” so‘zi o‘zbekchada ham “xalat” deb berilgan. Lekin o‘zbek kitobxoniga gap qanaqa libos haqida borayotganini sezsa-da, nazarimizda, ushbu so‘zga o‘zbekcha muqobil (masalan, chakmon), agar topilmasa, turklar ishlatadigan “kaftan” kabi bironta so‘z izlab ko‘rish kerak, nazarimizda.

Yana bir misol: *“Разморенные жарой, волю или, понуро опустив головы, над их мокрыми спинами кружилась мошка, под колесами сухо шелестели стебли ковыля – дэрисуна”* [1,3]. O‘simlik nomlari alohida o‘rin egallagan ushbu jumlada qo‘llanilgan “ковыль – derisun” o‘simligi o‘zbekchaga “derisun-chalov” deb beriladiki, bu ham tarjimonning o‘simlik nomlarini berish ishiga qanchalik sinchkovlik bilan yondashganini ko‘rsatadi: *“Haroratning issiqligidan ho‘kizlar boshlarini yerga egib borar, ularning ter ko‘pchigan yelkalarida chivinlar g‘ujg‘on o‘ynar, arava g‘ildiraklari ostiga esa qurib qaqqshagan derisun-chalovning shitirlashi eshitilardi”* [3, 5].

Tarjima jarayonida ijodkor zarurat tug‘ilganda jumlagi ijodiy yondashadi, uni asarga “shikast yetkazmasdan”, o‘sha davrning asosiy vositasi sifatida qo‘llanilgan ho‘kizlar haqidagi *“над их мокрыми спинами кружилась мошка”* sodda gapini *“ularning ter ko‘pchigan yelkalarida chivinlar g‘ujg‘on o‘ynar”* deb tarjima qiladi. Ruscha “мокрый” so‘zi “ter ko‘pchigan”, “кружилась мошка” birikmasi *“chivinlar g‘ujg‘on o‘ynar”*, yoki “сухо” so‘zi *“qurib qaqqshagan”* kabi sof o‘zbekcha birikmalar orqali mohirona qayta ifoda etiladi.

Yuqorida ta’kidlangan “ковыль – derisun” va uning o‘zbekcha muqobili “derisun-chalov” ga qaytadigan bo‘lsak, bunday so‘zlarning badiiy asarlarda to‘g‘ri qo‘llanilishi minglab turli o‘simlik nomlarining faol nutqimizda saqlanib qolishini ta’minlaydi. Chunki hozirgi vaqtda o‘simlik va hasharot nomlari asosan ilmiy matnlarda, mutaxassislar nutqida, lug‘atlarda termin sifatida saqlanib

qolmoqda va yosh avlod nutqida, hatto yozma nutqda ham kam qo‘llanilmoqda. Badiiy asarlarda bu kabi so‘z-terminlarning ko‘proq qo‘llanilishi muhim hisoblanadi.

Roman personaji Taychu-Quri xotini Qaymishga Temuchinning erta vafot etishi sababi haqida so‘zlab, shunday deydi: *“Я как смолистый пен, меня никаким топором не расколотишь... А мы родились в один день с Тэмуджином. Почему он состарился и умер раньше? Не знаешь, жена моя Каймиш... Хан ел, что хотел, я – что давали, он делал, что хотел, я – что велели... Хан не слезал с коня, а я топал ногами по матери-земле. От земли моя сила. Через ноги – сюда. – Тайчу-Кури выпятил грудь, постучал по ней кулаком, засмеялся”* [2, 172].

E’tibor berilsa, Taychu-Qurining xulosalari falsafiy mazmunga ega. U oddiy odam bilan hukmdorni ikki og‘iz so‘z bilan ta’riflab, ular orasidagi farqni qisqa, lo‘nda qilib ifodalaydi. Bu yerda yozuvchining falsafiy xulosalarini o‘zida mujassam etgan parcha M. Yo‘ldoshev tomonidan beka-u ko‘st o‘zbek tiliga o‘girilgan: *“Men yelimdor g‘o‘laman-ku. Uncha-muncha bolta ham yorolmaydi meni” – deb maqtanardi xotiniga. – Xon xohlagan narsasini yer edi – men esa berishganini, u xohlagan ishini qilardi – men esa buyurishganini... Xon ot ustida yurdi, men esa oyog‘imda kun o‘tkazdim. Mening qudratim yerdan. Shu oyoqlarim orqali bu kuch mana bu yerga yetib keladi. – Taychu-Quri ko‘ragini kerdi-da, mushti bilan yuragi ustiga urib qo‘ydi...”* [4, 671].

Xulosa. Umuman, roman va uning tarjimasini haqida keng miqyosdagi monografik tadqiqot olib borish mumkin. Bir maqola doirasida esa asar tarjimasini xususida qisqagina xulosa chiqarish va tadqiqotlarni davom ettirishga undash imkoniyati bor. Darhaqiqat, Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimasini yuksak badiiy saviyaga ega. U tarjimada o‘zbek tilining boy frazeologik zahirasi, o‘xshatish, metafora, metonimiya va jonlantirish kabi badiiy tasvir vositalaridan tarjimaning estetik ta’sirini oshirish, qahramonlar portreti va ichki dunyosini ochib berish maqsadida mahorat bilan foydalangan. Ushbu mo‘jaz tadqiqot ishimiz mohir tarjimon ijodi ustida olib borilajak ishlarning debochasi hisoblanadi va yaqin kelajakda Muslimbek Yo‘ldoshev kabi so‘z ustalarining tarjimonlik mahorati qirralarini o‘rganish, amaliyotdan ancha orqada qolib kelayotgan tarjima nazariyasi va tanqidi sohasini jonlantirish yo‘lidagi xayrli ishlardan biri bo‘ladi, deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хамидов Х. Таржимонлик маҳорати. // Шарқ юлдузи. – 2025, 8-сон. – Б. 135-138.
2. Калашников И. Жестокий век. Исторический роман. Книга первая. Гонимые. – М., 1978. – 238 с.
3. Калашников И. Жестокий век. Исторический роман. Книга вторая. Гонители. – М., 1978. – 172 с. (Бесплатная библиотека Books Cafe.Net).
4. Калашников И. Шафқатсиз аср (Чингизхон ва чингизийлар). Икки жилдли тарихий роман. 1-жилд. Қувғиндилар. – Тошкент: “Ўзбек миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2018. – 384 б.
5. Калашников И. Шафқатсиз аср (роман). Биринчи китоб (Қувғиндилар). / таржимон: М. Йўлдошев. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 544 б.
6. Калашников И. Шафқатсиз аср (роман). Иккинчи китоб (Қувғувчилар). / таржимон: М. Йўлдошев. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 672 б.
7. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент, 1983. – Б. 252.
8. Йўлдошев М. Сўзим таржимаи ҳоли. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2023. – 176 б.
9. Yo‘ldoshev M. Oq-qora bo‘yoqli polotno // VIII Tarjimashunoslari forumi – 2024: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: TDSHU, 2024. – B. 324.

MUNDARIJA		
I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI		
1.	Zuhriddin ISOMIDDINOV. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	Uzoq JO‘RAQULOV. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	Xurram RAHIMOV. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА. Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	Ne‘matilla OTAJONOV. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	Rukhsana IFTIKHAR. Beautification of Mughal women	26
7.	Наталья ФИЛИМОНОВА. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	Kosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	Xayrulla HAMIDOV. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	Ирода СИДДИКОВА. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабур и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	Ziyodaxon TESHABOYEVA. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	Zulhumor MIRZAEVA. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	Abdumajid MAMADALIYEV. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	Muhammadjon ABDUVALIYEV. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	Shermurod SUBHON. Ijodiy kengashlarda	84